

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLMANOVA SHOXSANAM QOBILJON QIZI

GI DE MOPASSAN VA GUSTAV FLOBER ASARLARI POETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Xolmanova Shoxsanam Qobiljon qizi

Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlari poetikasi 3

Холманова Шохсанам Кобилжон кизи

Поэтика творчества Ги де Мопассана и Гюстава Флобера..... 27

Kholmanova Shokhsanam Qobiljon qizi

The Poetics of the works of Guy de Maupassant and Gustave Flaubert 55

E’lon qilingan ishlar ro’yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

XOLMANOVA SHOXSANAM QOBILJON QIZI

GI DE MOPASSAN VA GUSTAV FLOBER ASARLARI POETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3107 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Qarshibayeva Uljan Davirovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Musurmanov Erkin Rabbimovich filologiya fanlari doktori, professor Jurayeva Maloxat Muhammadovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" fevral soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62631 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" fevral dagi № 4 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar poetikasi adabiy-estetik qatlam sifatida izchil o'rganib kelinmoqda. Adabiyotshunoslikda badiiy tasvir ijodkorning g'oyasi, asarning ijodiy konsepsiyasi, tuzilishi, kompozitsiyasi, uslubi va janr xususiyatlarini belgilovchi asosiy omil sifatida adabiy hodisaning tarkibiy qismiga aylanadi. Poetika masalalarining jahon adabiyotida tadqiq etilishi esa davrlar o'tishi bilan yangi ilmiy yondashuvlar va uslublar asosida boyib, takomillashib bormoqda. Olam tasvirini, personajlar xarakterini qayta yaratish, jamiyatning mavjud ijtimoiy holatini, obyektiv va subyektiv vaziyatlarni, urf-odatlar hamda tabiat haqidagi tasavvurlarni badiiy aks ettirish orqali asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan poetik tahlil bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida poetika masalalari qadimdan shu soha bilan shug'ullangan olimlar tomonidan tadqiq etilgan va har bir davr o'zining poetik qonuniyatlari bilan adabiyotshunoslikka yangi qarashlar kiritgan. Darhaqiqat, asar tuzulishi, syujet va kompozitsiyasini yaratuvchi, epik asarlarni shakllantiruvchi, badiiy voqelikni ta'minlovchi makon va zamon, badiiy g'oya asarning estetik tabiatini tushinishda o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Zero, poetika asar mazmunini ifodalovchi vosita hisoblanar ekan, badiiy o'ziga xoslikni anglash, muallif uslubini mukammal tushunish, germeneytik xususiyatlarni idrok etish asarda ifodalangan badiiy tasvir komponentlarini tasarruf etmasdan amalga oshmaydi.

Mamlakatimizda bugungi kunda poetika nafaqat tilshunoslik va badiiy adabiyotga, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlarga ham aloqador zamonaviy ilmiy - tadqiqot tendensiyalarini taqazo etmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev mamlakatda ilmni, shu jumladan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning rivojlanishini har tomonlama qo'llab - quvvatlaydi: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"¹. Shularni inobatga olgan holda, badiiy va badiiy bo'lmagan adabiyotlar orasidagi chegaralarni o'rganish ham muhim masalalardan biridir. Shuningdek, romantizm, realizmdan tashqari bugungi kundagi postmodernizm, feminizm, postkolonializm yo'nalishlariga xos ijod namunalariidagi qarashlar poetika masalalariga yangi o'lchovlar kiritmoqda. Har bir davr o'zining adabiy poetikasini yaratgan, aynan shunday ijodiy qarashlar adabiyotning zamonaviy tahliliga imkon yaratadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/3324> (24.02.2024).

takomillashtirish to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarning poetikasi, g'oyaviy-badiiy mazmuni, janr, makon va zamon xususiyatlari, shuningdek, yozuvchilarning hayoti va ijodi Yevropa olimlari F.Bonnefi, A.M.Rem, S.Filip Fone, B.Kolett, N. de M.Fransin, Arselen Ben Farhat, Florian Plas-Vergnes, Jozef Kurte, Timot Lesho, A.M.Bijon Baron, G.Delasmon² tadqiqot ishlarida, rus olimlari Y.V.Sokolovskaya, G.I.Modina, K.N.Galay, S.A.Krivtsova, I.Y.Podgayetskaya, A.G.Andreev, P.N.Berkov, E.M.Yevnina, T.V.Kovaleva, Y.N.Kupreyanova, E.Menial kabi olimlarning ishlarida³, o'zbek olimlaridan

²Bonnefis Ph. Sept portraits perfectionnés de Guy de Maupassant. – Paris: Galilée, 2005. – 243 p.; Raim A.M. La communication non-verbale chez Maupassant. – Librairie A.-G. Nizet, 1986. – 173 p.; Fones Ph.S. Mark Twain: social critic. – New York, 1958; Becker Colette. Lire le réalisme et le naturalisme. – Paris: Dunod, 1992. – P. 38-39; Ninane de Martinoir Francine. – Maupassant et le pessimisme "fin de siècle", Analyses et réflexions sur Guy de Maupassant Une Vie // Ouvrage collectif, Ellipses. – Paris, 1999. – P. 446-449; Farhat A.B. La structure de l'enchâssement dans les contes et nouvelles de Guy de Maupassant // Faculté des Lettres et de Science Humaines de Sfax. – Tunisie, 2006. – P. 240-245; Floriane Place-Verghnes. Jeux pragmatique dans les contes et nouvelles de Guy de Moupassant. – Paris: Honoré champion éditeur, 2005. – 335 p.; Courtés J. La parure de G. de Maupassant. Description sémiolinguistique // Du visible au visible. Initiation à la sémiotique du texte et de l'image. – Bruxelles: De Boeck Université, 1995. – P. 35-86; Lécho T. Maupassant: quelle genre de réalsme? – Bordeaux: Les édition de l'Hèbe, 2010. – 96 p.; Bijaoni Baron A. – M. Le theme bureaucratique chez Flaubert et Maupassant // Flaubert et Maupassant: Ecrivains normands. – Paris: Presses Universitaire de France, 1981. – P. 53-69; Delaisement G. La modernite de Maupassant. – Paris: Rive droite, 1995. – 308 p.

³Соколовская Ж.В. А.П. Чехов и Ги де Мопассан: национальное своеобразие малой прозы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – 28 с.; Модина Г.И. Ранняя проза Гюстава Флобера: становление творческой индивидуальности писателя: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Владивосток, 2017. – 473 с.; Галай К. Н. Функции художественной детали в прозе И. Бунина и Ги де Мопассана: опыттипологического сравнения: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2013. – 215 с.; Кривцова С.А. Личность и творчество И.А.Бунина в оценке французской критики: Дисс. ... канд. филол. наук. – Орел, 2008. – 220 с.; Подгаецкая И.Ю. Опыт сравнительного изучения русской и французской поэтики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1975. – 24 с.; Андреев Л.Г., Козлова Н.П., Косиков Г.К. История французской литературы. – Москва: Высшая школа, 1987. – 420 с.; Берков П.Н. Ги де Мопассан и французский реалистический роман // Французский реалистический роман XIX века / сб.ст. под ред. В.А.Десницкого. –Москва: Художественная литература, 1932. – С. 198-222; Евнина Е.М. Мопассан и его рассказы // Ги де Мопассан. Рассказы на французском языке. – Москва: Прогресс, 1974. – С. 3-22; Ковалева Т.В. и др. История зарубежной литературы (Вторая половина XIX - начало XX века). – Минск: Завигар, 1997. – 336 с.; Купреянова Е.Н. Социальный смысл нравственной философии романов "Мадам Бовари" и "Анна Каренина" (К вопросу о

I.K.Mirzayev, M.N.Xolbekov, U.Jo‘raqulov, A.Nosirov, U.Qarshibayeva, B.To‘rayeva, M.Jabbarova kabilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan⁴.

So‘ngi yillarda badiiy asarning poetik xususiyatlari ustida olib borilayotgan izlanishlar ko‘lami yanada ortib bormoqda. I.K.Mirzayev va U.D.Qarshibayeva XIX asr Yevropa adabiyotining poetik xususiyatlarini o‘z tadqiqotlarida tahlil qilgan. Bundan tashqari, A.Nosirov va B.To‘rayevalar badiiy zamon va makonning turli xususiyatlarini o‘rganib, o‘z izlanishlarida yoritganlar. M.Jabbarova esa Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazini tahlil qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: XIX asr fransuz adabiyoti poetik xususiyatlarini Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlari misolida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

XIX asr fransuz badiiy asarlari poetikasida romantizm va realizmga xos xususiyatlarini asoslash;

Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlarini poetik tahlil qilish asosida Yevropa romantizimida ilk realizmga xos g‘oyalarning badiiy xususiyatlarini, belgilarini ochib berish;

Floberning “Bovari xonim” asari qahramonlari taqdiriga, xarakteriga ijtimoiy muhitning ta’siri, undagi mavjud xarakter xususiyatlarning tashqi muhit ta’sirida salbiy yoki ijobiy tomonga o‘zgarishini poetik tahlil qilish orqali dalillash;

Gi de Mopassan va Gustav Flober prozasida universalizm va antitezaning rolini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Gi de Mopassanning “Azizim” va “Hayot” romanlari, shuningdek, “Do‘ndiq”, “Marjon shodasi”, “Madmuazel Fifi” novellalari hamda Gustav Floberning “Bovari xonim” romani tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Gi de Mopassan va Gustav Floberning tanlab olingan asarlarida qo‘llanilgan universalizm, antiteza, badiiy zamon va badiiy makonning o‘ziga xos poetik xususiyatlarini tizimlashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda poetikani ifodalovchi til birliklarining o‘ziga xos semantik xususiyatlarini tavsiflash uchun struktur-semantik, kognitiv, germeneytik, badiiy matnlarda mavjud zamon va

национальной типологии русского реализма) // Русская литература. – Москва, 1976. № 1. – С. 41-53; Мениаль Э. Ги де Мопассан. Жизнь и творчество. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – 320 с.

⁴Холбеков М.Н. Ги де Мопассан мероси ўзбек тилида (таржима ва танқид тарихидан) // Таржима муаммолари. Мақолалар тўплами. 2-китоб. – Тошкент-Самарқанд, 1991. – Б. 30-40; Жўрақулов У. Адабий-тарихий жараён: Ижодкор. Жанр. Хронотоп. – Тошкент, 2015. – 355 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.; Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси: Монография. – Тошкент: Турон-икбол нашриёти, 2017. – 289 б.; Носиров А. Одил Ёкубов романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореферати. – Самарқанд, 2018. – 70 б.; Қаршибаева У. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореферати. – Тошкент, 2016. – 82 б.; Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг киёсий-типологияк тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореферати. – Бухоро, 2022. – 71 б.; Jabbarova M. Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviri. Filol. fan. bo'yicha falsafa. doktori. (PhD) diss. – Buxoro, 2024. – 125 b.

makonning faol komponentlarini aniqlash va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Yevropa romantizmida ilk realizm belgilari, ularning jamiyat va madaniy qoliplarga ta'siri hamda XIX asr o'rtalaridagi adabiy jarayonda badiiy voqelikning rang-barangligi, obrazlar tasviridagi oppozitsiya, syujet tasviridagi negativlik va hissiylikning ustuvorligi Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlari qahramonlari misolida tahlil qilinib, ilmiy-nazariy va poetik jihatdan asoslandi;

Gi de Mopassan asarlarida realizm poetikasiga xos jihatlar voqelikning ixcham va bezaksiz tasviri, psixologik tahlil, ironik ijtimoiy tanqid, kundalik voqealarga asoslangan syujet va kutilmagan yakunlar hamda jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy holatini aks ettiruvchi vaziyatlar poetik tahlil asosida ochib berildi;

Bovari xonim romanida Emma Bovari xarakteriga ijtimoiy omillarning ta'siri, romantik xayolparastlik, hashamatga intilish va muhabbatni ideal tarzda tasavvur qilish kabi individual sifatlarning tashqi ta'sir ostida salbiy yo'nalishga burilishi dalillandi;

fransuz romantizmiga xos bo'lgan voqelikdagi fojiaga ruhiy sezgirlik, despotiya va zulmga qarshi ichki isyon motivlari Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlarida universalizm va antiteza tamoyillari asosida tahlil qilinib, qahramonlarga xos sezgirlik, erkinlikka intilish hamda ideal bilan haqiqat o'rtasidagi ziddiyat kabi individual sifatlarning umumlashtirilishi natijasida badiiy obrazlarning ijtimoiy tiplarga aylanishi nazariy jihatdan aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

dissertatsiya materiallaridan romantik qahramon va subyektiv olamga xos xususiyatlar bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish doirasida foydali hisoblanadi. Tadqiqot natijalarini ta'lim jarayonida romantizm va realizm muammosini o'rganishda qo'llanilgan;

o'zbek adabiyotshunosligining metodologik bazasi fransuz romantizm va realizm adabiyoti prozasi misolida badiiy qahramon xususiyatlariga oid materiallar bilan boyitilgan;

XIX asr fransuz badiiy asarlarida romantizmga xos hikoya tizimi allegorik afsonalar shaklida emas, balki real voqelikdagi ijtimoiy va falsafiy muammolar hamda sirli hodisalarni realistik va romantik uslublarning uyg'unlashuvi orqali ifodalashga yo'naltirilganligini o'rganishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan tahlil usullari va yondashuvlari zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi va metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiqot materiali ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning mantiqiy bayon etilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ahamiyati uning dolzarbligi va ilmiy yangiligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari XIX asr fransuz adabiyotida hukm surgan adabiy muhit va o'sha davr shukuhiga monand yaratilgan asarlarning poetik ya'ni muallifning so'zni qo'llash mahoratining o'ziga xosliklari to'g'risidagi ilmiy bilimlarning

kengayishiga, ilmiy izlanishlar olib borishga, magistrlik dissertatsiyalari tayyorlashga manba bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalarini oliy ta'lim muassasalaridagi filologiya fakultetlarida "Adabiyotshunoslik", "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili", "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti" fanlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda, seminar-treninglarni tashkil etish jarayonida, shuningdek, yangi o'quv-metodik majmualarni tuzishda, hamda taqdimotlarni tayyorlash, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlari qahramonlarining universalizmi, badiiy zamoni va makoni hamda ularning poetik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Gi de Mopassan badiiy asarlari doirasida mavjud davr poetikasining o'ziga xosliklari va jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy holatini ifodalovchi lingvopoetik holatlar, o'sha davr badiiyatini ifodalovchi hodisalar hamda har bir yozuvchining individual ijod xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy dalillardan 2021-2023-yillarda Qarshi davlat universitetida amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 2-maydagi 04/1758-son ma'lumotnomasi). Natijada tanlangan adabiyotlardagi mavjud misollar va ularning metodologik tahlili, poetik xususiyati hamda adabiyotshunoslik sohasida hanuz muammoli hisoblangan badiiy xronotop xususiyatlarini ochib berish va tushinish uchun xizmat qilgan. Tahlilga tortilgan asarlar fransuz xalqining madaniyati, adabiyoti, tarixi va tilini chuqur anglash imkonini bergan;

"Bovari xonim" asari qahramoni Emma Bovari taqdiriga, xarakteriga ijtimoiy muhitning ta'siri ochib berish, bunda qahramonning muhitga bo'lgan qarashi hamda undagi mavjud xarakter xususiyatlarning tashqi muhit tomonidan ta'sirlanganligi poetik jihatdan o'rganish va uning bugungi jamiyatga, yoshlar ongiga ta'sirini tahlil qilishga oid natijalari va ishlab chiqilgan tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 20-iyun 1261/02-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyihaning mazmunini boyitishga va unda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga metodologik manba bo'lib xizmat qilgan;

Yevropa romantizimida ilk realizm ko'rinishlarining belgilari va uning jamiyat, madaniyat qoliplariga bo'lgan ta'siri va badiiy voqelikning XIX asr o'rtalarida adabiy jarayonlarda rang barangligi hamda Mopassan va Flober ijodidagi obrazlar tasvirida oppozitsiya, syujet tasvirida negativlik va hissiy qobiqqa o'ralib olish kabi holatlarini tahlil qilishga oid taklif-tavsiyalardan "Samarqand viloyati teleradiokanali" DMda 2024-yilning noyabr oyida e'fira

uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot” ko’rsatuvi navbatdagi sonining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 6-maydagi № 01-07/182-son ma’lumotnomasi). Natijada keng jamoatchilik orasida Yevropa romantizm davrida paydo bo’lgan ilk realizm ko’rinishlari, belgilarini hamda ularning jamiyat va madaniyatga ta’sirini ochib berishga xizmat qilgan;

fransuz romantizmiga xos yorqin shaxslar voqelikdagi fojiani chuqur his qilishi, despotiyaga, zulmga qarshi faol kurashlarida namoyon bo’ladigan vaziyatlarini o’rganish, bunda ba’zi adabiy qahramonlar o’ziga xos, individual hislatlari bilan bir vaqtda abstraklanib, umumlashib, ijtimoiy tiplarga aylanishini tahlil qilish xulosalaridan Fransiya va O’zbekiston o’rtasidagi adabiyot sohasida madaniy aloqalar dasturida foydalanilgan (“Alliance Française de Samarcande”ning 2025-yil 23-maydagi № 3-son ma’lumotnomasi). Natijada Gi de Mopassan va Gustav Flober asarlarida universalizm va antitezaga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali jahon adabiyotidagi badiiy talqin haqidagi ilmiy tasavvur va tushunchalarni boyitishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo’yicha 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 3 ta ilmiy tezis va O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta va impakt faktori yuqori bo’lgan jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XIX asr fransuz adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan bo’lib uch bo’limdan iborat. Ushbu bobning birinchi bo’limi “Fransuz adabiyotida romantizm va realizmning rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan.

XIX asr fransuz badiiy ijodi adabiy jarayon rivojida keskin burilish davri sifatida namoyon bo’ldi. Bu davrda jamiyatda savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshib, badiiy adabiyot keng ijtimoiy qatlamlar uchun ochiq maydonga aylandi. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotda yuz bergan o’zgarishlar esa yozuvchilarning dunyoqarashi va estetik qarashlariga chuqur ta’sir ko’rsatdi. Endilikda adabiy asarlar faqatgina estetik zavq uyg’otuvchi vosita emas, balki inson tafakkurini

boyituvchi, uni ruhiy-ma'naviy barkamollikka yo'naltiruvchi ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Fransuz inqilobi davridan so'ng yozuvchilar tobora xalq ommasiga yuzlandilar, san'atda demokratik tamoyillar kuchaydi, badiiy obrazlar hayotiylik kasb etdi, qahramonlar esa bevosita xalq orasidan chiqdi. Shu tariqa XIX asr fransuz adabiyoti inson, jamiyat va san'at o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangicha falsafiy-estetik talqinda namoyon etuvchi yangi bosqichga ko'tarildi.

Adabiyotda keng tarqalgan oqimlardan biri bu romantizmdir. Shartli ravishda XIX asr romantizm deb atalgani bilan, jahon tarixi va adabiyotidagi yangi davr bo'ldi. "Romantizm (romantik ruh) so'zi Germaniyada qabul qilingan bo'lib, romantik poeziya manbalarini nemislar xristianlik va ritsarlik davrlarida tug'ilgan trubadurlar poeziyasida ko'radilar. Ba'zan, nemislar klassik so'zini mukammal so'zining sinonimi o'rnida qo'llaydilar"⁵.

Realizm atamasi Fransiyada ilk bor 1826-yilda XIX asr Merkyuri jurnalining anonim maqolasida tilga olinadi. Bu adabiy jurnal, ayniqsa san'at, xususan rang tasvir sohasida romantizm g'oyalariga qarshi chiqqan va ularni tanqid qilgan edi. Ushbu atama keyinchalik faylasuf hamda lug'atshunos Emil Littr tomonidan uning mashhur Fransuz tili lug'atida qayd etildi, unda bu so'z go'zal san'atlar qatori adabiyotga ham tatbiq etilishi ko'rsatildi. Nihoyat, yozuvchilar va rassomlar tomonidan keng qo'llanib, shuhrat qozongan "realizm" atamasi 1878-yilda Fransuz akademiyasi lug'atiga ham kiritildi.⁶

Jahon adabiyoti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan romantizm oqimi va bu oqimga mansub bo'lgan badiiy adabiyotni o'rganishda ushbu oqim ijodkorlarining falsafiy va adabiy - nazariy qarashlariga, ular yaratgan asarlarning tadqiqiga murojaat etish zarur hisoblanadi. Mashhur nemis faylasufi va adabiyotshunosi Yan Pol Rixter, Avgust va Fridrix Shlegellar, Klemens Brentano, Gyote, Shiller, F.Klinger, X.Xayne, shuningdek, Angliyada Bayron va Shelli, Fransiyada esa F.Shatobrian, Jermena de Stal, Sh.Node, V.Gyugo, J.Sand, Ejen Syu, A.Myusse, G.Flober va G.Mopassan – Yevropa romantizmining yirik namoyandalaridandir. Yevropa romantizmi asoschilari chuqur falsafiy o'z-o'zini anglashi zamirida romantizm adabiyoti tushunchasi vujudga kelgan edi. Yevropa romantizmi ijodkorlarining falsafiy va adabiy-nazariy qarashlari Fransuz realizmining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Gustav Flober va Gi de Mopassan romantizmning idealistik va hissiy yondashuvlarini o'zlarining realizmga xos asarlarida qayta ishlab, voqelikni tanqidiy va haqqoniy tasvirlash imkoniyatini yaratdilar. Flober "Bovari xonim"da romantik idealizmning shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlarini ochib berdi, Mopassan esa qisqa hikoyalarda inson psixologiyasini realistik tafakkur bilan uyg'unlashtirdi. Shu tariqa, ularning ijodi romantizm va realizm o'rtasidagi ijodiy bog'liqlikni mustahkamladi.

"Romantizm bo'lmag'ur burjua voqeligidan bezor bo'lib, undan g'oyalar, umidlar (ideal), yorqin orzular olamiga qochdi. Biroq burjua tuzumining ziddiyatlari borgan sari to'laroq yuzaga chiqa boshladi, orzu qilingani bilan hayot

⁵Жермена де Сталь. О Германии. О влиянии страстей на счастье людей и народов. // Литературные манифесты западноевропейских романтиков. – Москва, 1980. – С. 384.

⁶<http://www.larousse.fr/encyclopedie/nom-commun-nom/r/C3%A9alisme/86007> (kirish sanasi. 2023.03.07)

yaxshilanmadi. Shu sharoitda hayotni yaxshilash uchun o'sha burjua voqeligining nimasi bo'lmag'ur ekanligini, uning illat va ziddiyatlari zaruriyati tug'ildi. Chunki ta'kidlanganiday, endi odamlar o'z turmushlariga, o'zaro munosabatlariga sog'lom ko'z bilan qarashga majbur bo'ldilar. Bu borliqni haqqoniy va ro'y - rost tasvirlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Natijada realizm paydo bo'ldi"⁷. Mazkur fikr shuni ko'rsatadiki, romantizm insonni jamiyatdagi ziddiyatlardan ruhiy qochishga undagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu oqim voqelikni o'zgartira olmasligi ayon bo'ldi. Shu tariqa hayotni ideal emas, balki real shaklda tasvirlash ehtiyoji tug'ildi. Natijada realizm inson va jamiyat munosabatlarini haqqoniy, tanqidiy ruhda yoritishga qaratilgan yangi badiiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Realistlar romantiklar singari orzularni emas, hayotning o'zini, borliqni, uning butun ziddiyatlari va murakkabligi bilan haqqoniy tasvirlaydi. Demak, haqqoniylik realizmning birinchi va asosiy talabidir. Biroq haqqoniylikning o'zi hali yetarli emas. Chunki realizm hayotda uchragan barcha narsalarni, ko'zga ko'ringan voqeliklarni tasvirlayvermaydi. "Realizm detallarning haqqoniy bo'lishidan tashqari, tipik sharoitlarda harakat qiladigan tipik xarakterlarning haqqoniyatini ham taqozo qiladi. Demak, realizm obrazlar, xarakterlar, voqealarning tafsilotlarinigina bermaydi, aksincha, ularni saralaydi, umumlashtirib, tipiklashtirib tasvirlaydi"⁸.

Amerikalik olim Erik Hayot o'zining "On Literary Worlds" nomli asarida realizmni shunday ta'riflaydi: *"Realizm va romantizm shunchaki tarixiy davrlar emas, balki dunyoni yaratishning (dunyo-qurishning) ikki xil modeli (usuli)dir: realizm dunyoni mavjud holicha anglash va tajriba qilishga intilsa, romantizm uni qanday bo'lishi mumkinligini tasavvur etishga intiladi"*⁹.

"Realizmda ijodkorning shaxsi va uning ijtimoiy estetik ideali ham katta rol o'ynaydi. Realizm insoniyatning ezgu orzulari jahondagi hamma kishilarning haqiqiy insonlarcha yashashga erishuvi uchun kurashni shior qilib oldi. Shuning uchun ham buyuk realist yozuvchilar ijodi izchil xalqchillik ruhi bilan sug'orilgandir. Realizmning yirik vakillari G.Geyne, V.Gyugo, G.Mopassan, J.London, B.Shou, L.Tolstoy kabi yozuvchilarning ijodi buning yaqqol misoli bo'la oladi"¹⁰.

Shu nuqtayi nazardan, realizmning asosiy vazifasi faqat tafsilotlarni ko'rsatish emas, balki ularni tanlab, umumlashtirib, tipik obrazlar orqali ijtimoiy va psixologik haqiqatni yoritishdir. Natijada realizm inson va jamiyatning murakkab, ziddiyatli tabiati bilan ishlashga imkon beruvchi analitik va tanqidiy badiiy metod sifatida shakllangan. Romantizm bilan realizm bir-birini inkor etmaydi, aksincha, realistlar romantizmning eng yaxshi xususiyatlarini rivojlantirib davom ettiradilar

Ushbu bobning "Fransuz romantizmi va tanqidiy realizm" deb nomlangan ikkinchi bo'limida realizm oqimida yozilgan fransuz asarlari haqida ilgari surilgan fikrlar ko'rib chiqiladi.

⁷Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2021. – B. 82.

⁸Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2021. – B. 82.

⁹Hayot Eric. On Literary Worlds. – New York: Oxford University Press, 2012. – B. 34.

¹⁰Fones Philip S., Mark Twain: Social critic. – New York: International publisher, 1958. – B. 121.

Tanqidiy realizm (XIX asr o'rtalaridan boshlab) romantizmga javoban yuzaga kelgan. U romantik ideallardan voz kechib, haqiqatni ijtimoiy nuqtayi nazardan yoritishga intildi. Bu oqimda yozuvchilar jamiyatning ichki ziddiyatlarini, sinfiy tengsizlik, axloqiy inqiroz, ekspluatatsiya kabi masalalarni ko'rsatishga harakat qilishgan. Bu ikki oqim tarixiy davrda bir-biriga yaqin yoki qisman ustma-ust kelgan. XIX asrning 1830–1850-yillarida romantizm sekinlik bilan o'z kuchini yo'qotib, uning o'rnini tanqidiy realizm egallay boshlagan. Romantizm XIX asr boshlarida o'zining hissiyotparvarlik va shaxsiy erkinlik tarafdori sifatida namoyon bo'lsa, tanqidiy realizm esa asr o'rtalaridan boshlab ijtimoiy haqiqatni so'zsiz aks ettirishga intildi. XIX asr o'rtalarida yuzaga kelgan tanqidiy realizm esa romantizmning haddan tashqari subyektivligi va idealizmidan voz kechdi. Onore de Balzak, Gustav Flober, Stendal singari yozuvchilar hayotni tafsilotlari bilan, ijtimoiy qatlamlar va sinflar ziddiyatlarini ochib berish orqali tasvirlashga intildilar. Balzakning “Goriot ota” asari boylik, mol - davlat va hashamatning XIX asr fransuz jamiyatida qanday rol o'ynagani, insonlar orasida qanchalik ahamiyatga ega bo'lgani haqida hikoya qiladi. Roman bosh qahramonlari – Gorio ota, Anastazi, Delfina, Ejyen de Rastinyak, Byanshon, Maksim de Trayer va boshqalar. Yozuvchi asar orqali birgina oila misolida butun fransuz jamiyatining asl ko'rinishini odamlar mansab, pul, obro' uchun hech narsadan tab tortmasligini ularga oilaning hech qanday ahamiyatga ega emasligini, bu jamiyatda insonning qadri-qimmatini uning daromadi bilan belgilanishini ko'rsatib bergan. “Goriot ota” romanida har bir kitobxon XIX asr fransuz jamiyati bilan oz bo'lsada tanishadi va bu jamiyatning illatlari, nafs, mol dunyo odamlarni ne ko'yga solganligining guvohi bo'ladi. Asarda oilalarning barbod bo'layotgani, ming yillik qadriyatlar so'nayotgani ta'sirli tarzda yoritilgan.

Tanqidiy realizm asarlari ta'sirchanligiga sabab unda ijobiy estetik idealning mavjudligidir. Rad etish pafosi tanqidiy realizm uchun juda xarakterli bo'lsa ham ya'ni tanqidiy realizm o'z zamonasining hukmron ijtimoiy-siyosiy tartiblarini, siyosiy va axloqiy aqidalarini ulotqirib tashlash kerakligini isbot etish ruhi bilan yo'g'rilgan ham bu metodda yozilgan asarlar ijobiy idealdan mahrum emas. Tanqidiy realizm o'z zamonasi voqeligini porloq kelajak tufayli shu kelajakning muqarrarligiga ishongan holda va uni yaqinlashtirish niyatida o'z zamonasining yaramas voqeligini rad etadi¹¹.

“Tanqidiy realizmda syujet asosan kundalik, oddiy hayotdagi xarakterlarni ochish asosiga quriladi. Ana shu oddiy, kundalik hayot manzaralari orqali tanqidiy realistlar voqelikning ijtimoiy mohiyatini, qahramonlar psixologiyasining ijtimoiy sabablarini ko'rsatadilar. Ular hayotiy jarayonlarni, jamiyat taraqqiyotining qonuniyalarini to'laroq ifoda eta oladigan janrlarga katta e'tibor berdilar. Shuning uchun ham tanqidiy realizm adabiyotida ijtimoiy roman janri keng rivojlandi, chunki bu janr borliqning murakkab va ko'p qirraligini ifodalash imkoniyatiga ega edi”¹². Tanqidiy realizm voqealarni soddalashtirmay, ularning ijtimoiy, psixologik va madaniy qatlamlarini ochib berishdir. Ijtimoiy roman janri esa murakkab

¹¹ Боброва М.Н. Литературная история соединенных штатов Америки. Т.1-2. – Москва: Прогресс, 1977. – С. 17.

¹² Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2021. – B. 84.

jamiyat voqealari va insoniy munosabatlarni tizimli va tanqidiy tasvirlash imkonini berib, shaxsda haqiqiy voqelikni anglash va jamiyat muammolarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Tanqidiy realizm yo'nalishidagi asarlar, xususan Gustav Flober va Gi de Mopassan ijodida inson va jamiyat hayotining murakkab, ziddiyatli va haqqoniy tasviri ijtimoiy muammolarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Flober "Bovari xonim" asarida shaxsiy istaklar, idealistik tushunchalar va jamiyatning qat'iy qoidalari o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib berib, realizmning nafaqat tafsilotlarni, balki psixologik va ijtimoiy kontekstni asosiy badiiy vosita sifatida qo'llash imkoniyatini namoyish etdi.

Gi de Mopassan esa qisqa hikoyalari orqali inson psixologiyasining nozik jihatlarini realistik tafakkur bilan uyg'unlashtirdi. U o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklar, insoniy zaifliklar va ularning ijtimoiy oqibatlarini ochiq-oydin tasvirlab, o'quvchida tanqidiy fikrlash va jamiyatni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. Shu yondashuv Mopassanning realizmga bo'lgan konseptual qarashlarini namoyon etdi, ya'ni badiiy obrazlar orqali murakkab ijtimoiy jarayonlarni aniqlik bilan ochish mumkinligini ko'rsatdi.

Flober va Mopassan ijodi tanqidiy realizmning asosiy tamoyillarini – haqqoniylik, ijtimoiy mas'uliyat va psixologik chuqurlikni mukammal badiiy ifoda qilish orqali namoyon etdi. Ularning asarlari shaxsda insoniy va ijtimoiy ziddiyatlarni anglash, shuningdek, jamiyatdagi adolatsizliklarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu tariqa, ularning ijodi fransuz realizmining ijtimoiy faolligi va psixologik chuqurligini targ'ib qiluvchi namunalar sifatida ilmiy jihatdan yuqori qadrlangan.

Mazkur jarayon natijasida fransuz romantizmidan tanqidiy realizmga o'tish Flober va Mopassan ijodida o'zining eng yetuk badiiy ifodasini topgan. Ularning asarlari real hayotni chuqur tahlil qilishi, insoniy holatni haqqoniy yoritishi va ijtimoiy tengsizliklarni tanqidiy baholashi orqali fransuz adabiyotining ijtimoiy faolligi va badiiy yetukligini ko'rsatgan.

Fransuz adabiyotidagi romantizm va tanqidiy realizm – biri ideal va ichki kechinmalarni, ikkinchisi esa real hayotni va ijtimoiy muammolarni yoritishga intilgan ikki muhim adabiy yo'nalishdir. Bu ikki oqim o'z zamonasining ruhiy-ma'naviy ehtiyojlariga javob bergan, adabiy jarayonni boyitgan va zamonaviy adabiyot uchun poydevor bo'lgan. Ularning o'zaro qarama-qarshiligi adabiy tafakkurning yuksalishida muhim o'rin tutadi.

"Gi de Mopassan asarlarida romantizm va realizm talqini" deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobi uch bo'limdan iborat bo'lib, unda asosan Mopassan asarlari germenivtik tahlil asosida o'rganilgan.

Ushbu bobning birinchi bo'limi "Gi de Mopassan novellalarida realizm g'oyalarining badiiy in'ikosi" deb nomlangan.

Romantizm davri – fransuz adabiyotida romantizmga xos asarlarning eng rivoj topgan davri hisoblanadi. Romantizm har doim real, hayotiy bo'lmagan kelajakka intilganlik, go'zallik va nafosat ideali haqida o'y-xayol, ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy uyg'unlik, hamohanglikdek qabul qilinishi lozim. Masalan, o'zining tanqidiy maqolalarida romantizm tushunchasiga keng ta'rif va tavsif

bergan rus munaqqidi V.G.Belinskiy, romantizmda aynan romantika muhim ahamiyat kasb etajakligini uqtirarkan, romantikani alohida olingan shaxsning ichki ma'naviy va ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'laydi:¹³ "O'zining uzviy va muhim ma'nosida romantizm, inson qalbidan, uning ichki dunyosi, yuragining sirli hayotidan boshqa hech narsa emas. Uning doirasi – insonning ichki, yuragidagi, dilidagi hayoti, qalb va yurakning sirli va yashirin sermahsul zamini, qayerdan barcha orzular ezgulik, olijanoblik, buyuklik sari ko'tariladi, o'y – hayol yaratgan ideallarda o'ziga qanoat topish, mamnun bo'lish, huzur – halovat topishga harakat qiladi"¹⁴

Fransiyada bo'lib o'tkan inqilobdan keyin ko'plab yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar yetishib chiqdi. Inqilobdan oldin ham Fransiyada, ya'ni XVIII asrda haqiqiy faylasuflar J.J.Russo, F.M.Volter, Sent-Simons, D.Didro, Buffon, Monteskyu, Dalamberlar yashagan va bu yozuvchi-faylasuflarning asarlari hamda qarashlari XVIII asr fransuz falsafasining eng ajoyib, eng yorqin va eng ta'sirli davri bo'lib dunyo tarixida qoldi.

XIX asrda ham fransuz falsafasining bunday ulug'vorligi davom etdi. Fransuz she'riyati va romanchiligi XIX asrda o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. Ushbu davrda yaratilgan asarlar yirik adabiy oqim – romantizmga yo'l ochdi. Lamartin, Stendal, Musse, Viktor Gyugo, Bodler, Nerval, Gyote, Verlen bu davr ijodkorlari hisoblanadi. Yuqoridagi yozuvchilarning har birining alohida o'z ijod uslublari bo'lgan va kitobxon qalbiga yo'l topa olgan. Lekin, Gustav Flober va Gi de Mopassan o'zlariga shunday bir yo'l tanlagan edilarki, unda ayrim adabiyot va jamiyat qoidalaridan chiqishga, ijtimoiy –madaniy hayotning ayrim qonuniyatlarini bajarmaslikka majbur bo'lgan edilar.

Mopassanning tanqidiy realizm va adabiy janr rivojiga ta'siri uning ijodiy uslublari, qahramonlarni tasvirlash san'atida namoyon bo'ladi. U insonni, uning sifatlarini butun ruhiy – psixologik badiiiy qiyofasini tasvirlagan, xarakterli xususiyatlaridan biri qanday qilib butun xarakter ruhiyatini egallab olganligini namoyish etgan. Agar u o'zgarish jarayonidagi qahramonlarni tasvirlagan bo'lsa, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ilgari ularga xos bo'lgan xususiyatlarni to'liq rad etish sifatida ko'rsatdi.

Fransuz romantizm oqimining yirik vakili Gi de Mopassan o'z asarlarida poetik fantaziya, real voqealarga ko'proq e'tibor bergan. Mopassan insonlar ahvoli, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi muvaffaqiyatsizliklarni o'rganuvchi novella va romanlari bilan mashhur. Yozuvchi obrazlarni yaratar ekan, insonning ichki, o'ta murakkab ma'naviy dunyosini, qarashlarini va hissiyotlar to'qnashuvini tasvirlashga urinadi.

Mopassanning hayoti va ijodini o'rgangan, uning o'ziga xos siymosini yaratishga harakat qilgan amerikalik qalamkash Filip Dahan "Gi de Mopassan va ayollar" nomli ocherkida Mopassan va uning "sevimli" ayollari haqida

¹³Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари (Шатобриан ва В.Гюго ижоди мисолида): Дисс. ... филол. фан.доктори (DSc). – Тошкент, 2016. – В. 26.

¹⁴Белинский В.Г. Полное собрание сочинений.Т.VII. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1955. – С. 145-146.

quyidagilarni bildirgan: “Mopassan buyuk inson edi va barcha buyuk odamlar kabi u juda ko‘p sevardi va ko‘p azob chekdi. Ayniqsa, ayollar tufayli”¹⁵.

Mopassan (Guy de Maupassant, 1850-1893) ijodida uning realizm va tanqidiy realizmga xos g‘oyalari “Azizim” (“Bel-Ami”, 1885), “Hayot” (“Une vie”, 1883), “Pyer va Jan” (“Piere et Jean”, 1888) hamda 300 ga yaqin novellalari jumladan, “Marjon shodasi” (“La Parure”, 1884), “Alvasti” (“Le Diable”, 1886), “Do‘ndiq” (“Boule de Suif”, 1880), “Madmuazel Fifi” (“Mademoiselle Fifi”, 1882) kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan. Mopassan asarlari ko‘pincha quyidagi mavzularga murojaat qiladi: inson tabiati, burjua jamiyati, sevgi va istak, o‘lim va taqdir. Mopassan o‘zining realistik uslubi, esda qolarli personajlar yaratish qobiliyati, inson tuyg‘ularini chuqur tasvirlash qobiliyati bilan e‘tirof etilgan.

Yozuvchining, “Marjon shodasi” (“La Parure”, 1884) novellasida go‘zal ayol, lekin hokimiyatda oddiy kotib bo‘lgan eri bilan kamtarona hayotidan norozi bo‘lgan Matilda Luazel haqida hikoya qiladi. U hashamatli hayotni orzu qiladi va o‘z muhitida o‘zini baxtsiz his qiladi. “*Elle souffrait sans cesse, se sentant née pour toutes les délicatesses et tous les luxes. Elle souffrait de la pauvreté de son logement, de la misère des murs, de l’usure des sièges, de la laideur des étoffes. Toutes ces choses, dont une autre femme de sa caste ne se serait même pas aperçue, la torturaient et l’indignaient*”¹⁶. Ma’nosi: U tinimsiz iztirob chekar, o‘zini barcha lazozatlar va hashamat uchun tug‘ilganini his qilardi. U turar joyining qashshoqligidan, devorlarning xiraligidan, o‘rindiqlarning eskirganligidan, matolarning xunukligidan aziyat chekardi. Uning xilidan bo‘lgan boshqa bir ayol bu narsalarni hattoki aqliga ham sig‘dirolmasligini o‘ylab qiynalar, asablari buzilar edi”¹⁷. Yozuvchi berilgan parchada qahramonning ruhiy holatini, uning ichki azoblarini atrof-muhit bilan yuzlashtiradi. Matilda doimiy azob ichida bo‘lib, o‘zini nozikliklar va hashamatlar uchun tug‘ilgan deb his qiladi. Bu esa uning o‘ziga yuqori talablarini, o‘zini boshqalardan ustunroq ko‘rish istagini ko‘rsatadi. U hayotdan faqat nafislik va qulayliklarni kutadi. “*Une autre femme de sa caste ne se serait même pas aperçue*” – bu yerda aytilishicha, uning sinfidagilaridan boshqalari bunday nozik narsalarni sezmaydi yoki e‘tibor bermaydi. Bu qahramonning o‘zini boshqalardan farqi borligini his qilishi, uning sezgirligi va ichki o‘ziga xosligini bildiradi. “*Délicatesses et luxes*” – ijobiy, ideal tushunchalar; “*pauvreté*”, “*misère*”, “*usure*”, “*laideur*” esa salbiy, noqulaylik ramzlari. Bu qarama-qarshilik qahramonning ichki orzu va tashqi haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Matnda ruhiy noziklik, ijtimoiy o‘ziga xoslik va tashqi muhitning kamsituvchi ta’siri aniq ko‘rsatilgan. Qahramon o‘zining yuqori talablariga javob bermaydigan hayot sharoitidan aziyat chekadi, bu uning ruhiy azobining manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Qisqa hikoya tashqi ko‘rinish illyuziyasi, ijtimoiy intilishlar va shaxsiy tanlovlarning oqibatlarini kabi mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, u taqdirning beshavqatligi va hayotning kutilmagan muvaffaqiyatsizliklari, taqdir hech kimni ayamasligini tasvirlaydi.

¹⁵ Анри Труайя. Ги де Мопассан. – Москва: Эксмо, 2005. – С. 236.

¹⁶ John Robin Allen, Noëlle Benhamou. Les Contes de Guy de Maupassant. – Copyright - Canada, 2008. – P. 708.

¹⁷ Bundan buyon fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan misollar dissertant tomonidan beriladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi “Azizim” romani poetik tahlili” deb nomlanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi fransuz adabiyotida realizmning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Adabiyotda realizmning yirik vakillaridan Onore de Balzak, Gustav Flober va Gi de Mopassan o‘z asarlarida real hayotni to‘liq tasvirlashga erishdilar. Yozuvchilarni jamiyat insonga qanday ta’sir qilishi, uning dunyoqarashi, jamiyatdagi muommolar, shaxsning qarashlari va e’tiqodlarining shakllanishi qiziqitirdi. Mopassan taniqli fransuz yozuvchisi, psixologik tahlil ustasi bo‘lib, uning ijodi XIX asrning birinchi yarmida realizm rivojlanishi davriga to‘g‘ri keladi. Mopassan o‘zining ma’naviy qarashlari va jamiyat haqidagi fikrlari bilan boshqalardan ajralib turar edi. Gi de Mopassanning real voqelikka asoslangan asarlaridan biri “Azizim” romanidir. Gi de Mopassanning “Azizim” romani 1885 - yilda yozilgan bo‘lib, unda asosan Fransiya hukumatining shu davrdagi siyosati, siyosatdonlarning va ular qo‘l ostida go‘yo qo‘g‘irchoqdek bo‘lgan jurnalistlarning hayoti, siyosiy qabihliklarini, fahsh va razolat bilan to‘lgan ichki hayotini ayovsiz suratda ochib tashlangan va voqealar yozuvchi tomonidan mahorat bilan real voqealar asosida tasvirlangan. Rus yozuvchisi A.M.Gorkiy ushbu asar haqida shunday degan edi: *“Azizim g‘alaba qozondi, u hokimiyat tepasiga ko‘tarildi. Ammo burjuaziya o‘zining taqdirini shunday ishonchsiz kimsalar qo‘liga topshirib qo‘yar ekan, uning o‘zini himoya qilish qobiliyati qay darajada tushib ketdi”*¹⁸. A.M.Gorkiyning “Azizim” haqidagi fikri Mopassan asarining ijtimoiy mohiyatini yoritadi. Gorkiy nazarida, asar burjua jamiyatining ma’naviy zaifligini va insoniy qadriyatlarning yemirilishini fosh etadi. “Azizim”ning “g‘alabasi” – bu tashqi muvaffaqiyat ortidagi ichki inqirozdir. Shu bois, Gorkiyning bahosi Mopassan realizmining tanqidiy ruhini to‘liq ifodalaydi.

Gi de Mopassan “Azizim” romanida obrazlarni tasvirlar ekan, ularning hayot yo‘lini to‘liq bayon etishdan ko‘ra, qahramonlar shaxsiyati shakllanadigan eng keskin ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy sinov davrlariga e’tibor qaratadi. Muallif uchun asosiy diqqat markazi – obrazning o‘z davri, makoni va zamoniga xos ichki kechinmalarini badiiy ifodalashdir.

Badiiy vaqt va zamonga har bir yozuvchi turlicha yondashadi. Akademik D.S.Lixachev ta’rificha, badiiy vaqt “bu vaqt muammosiga nazar emas, balki vaqtning o‘zi, badiiy asarda u qanday namoyon bo‘lishi va tasvirlanishidir. U yoxud bu mualliflar tomonidan aytiladigan vaqt konsepsiyasining tadqiqi emas, balki aynan shu badiiy vaqtning tadqiqi so‘z san’atining estetik tabiatini tushunish uchun ko‘proq ahamiyat kasb etadi”¹⁹. “Badiiy vaqt - adabiy asar badiiy to‘qimasi hodisasi sifatida adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning obrazlar tizimi, butun poetik tarkibi bilan bevosita bog‘liqdir. “Badiiy zamon yozuvchining dunyoqarashi, tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va shu bilan individual muallifning dunyoni anglash, his qilish va boricha qiyofasini ko‘ra bilish xususiyatlarini aniqlaydi. Shuningdek, badiiy asarning ichki qonuniyatlarini mustahkamlash janr ijodini chuqurlashtirishga, yozuvchi uslubini shakllantirishga

¹⁸[https://uz.wikipedia.org/wiki/Azizim_\(roman\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Azizim_(roman))

¹⁹Лихачёв Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – Москва: Наука, 1979. – С. 210.

hissa qo'shadi. Bir so'z bilan aytganda, zamon va makon kategoriyalarini o'rganish badiiy asarning matniga chuqurroq kirib borish bilan birga, uning qurilishidagi o'ziga xos jihatlarni ochishda ham yozuvchi dunyosi konsepsiyasini aniqlashga imkon beradi".²⁰

Adabiyotda vaqt bu – so'z san'atida turli xilda tajassumlashgan, harakatda bo'lgan va ijodiy-estetik o'zlashtirilgan vaqt tizimidir. Boshqacha aytganda, badiiy vaqt badiiy modellashtirish vositasi sifatida bevosita badiiy olamning "to'rtlamchi koordinati" vaqti bo'lib, u adabiy qahramonning borlig'i va tasvir subyektining borlig'i hisoblanadi. Adabiy qahramonning borlig'i konseptual vaqt (adabiy hodisalarning, tashqi reallikni kitobxon uchun mos shakllarda modellashtirishning obyektivlashgan foni), tasvir subyektining borlig'i esa, yuqorida eslatganimiz, perseptual vaqtdir²¹. Har bir badiiy asarda voqealar muayyan vaqt oralig'ida kechayotgan jarayon sifatida tasvirlanadi va aksariyat hollarda asarning kirish qismidayoq voqea sodir bo'layotgan davr aniq belgilanadi. Ushbu vaqt mezonining aks ettirilishi, uni qanday taqdim etilishi yozuvchining estetik pozitsiyasi, tafakkur uslubi hamda badiiy mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi.

*"Et il se rappelait ses deux années d'Afrique, la façon dont il rançonnait les Arabes dans les petits postes du Sud"*²². Ma'nosi: To'satdan Jorj Dyuruaning esiga Afrika janubining xilvat qal'alarida kechirgan yillari tushib ketdi. Yozuvchi jarayonni tasvirlar ekan, to'satdan personaj Afrikada bo'lgan damlarini eslaydi. Ya'ni o'sha paytlarda sodir bo'lgan voqealarni personaj xayolotida qaytadan aks ettirgan. Mazkur badiiy tasvirda qahramon holatini ochishda zamon kategoriyasi muhim poetik funksiyani bajaradi. Zamonning o'zgaruvchanligi orqali muallif qahramonning ruhiy kechinmalarini va ichki holatini badiiy asosda ifodalagan. Bunda ham hech qanday vaqt ko'rsatgichlarining aniq miqdori keltirilmagan. Vaholanki, asar o'qilish jarayonida aniq bir badiiy zamon tasavvuriy bayoniga ega. Ammo bu jumalalarda kichik, aniq bir vaqt ifodasini emas balki, Afrika janubida kechirgan yillari davomida bo'lishi kuzatilgan jarayon ifodalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. *Il se rappelait ses deux années d'Afrique* jumlasidan bilish mumkinki, Afrikada bir yil yoki ikki yil emas balki, bir necha yillar davomida yashaganini davomiylikni ko'rsatadi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "Hayot" romanining poetik xususiyatlari deb nomlanadi.

Asarning badiiyatini yuzaga keltiruvchi vositalar o'xshatishlar, epitet, so'zlarning turli xil fonetik, leksik-grammatik shakl ifoda imkoniyatlari matn ifoda imkoniyatlari orqali insonga borliqning turli ma'naviy rangli dunyosi manzarasini aniqlashga yordam beradi. Badiiy – poetik nutqning boshqa nutq shakllaridan farqi – undagi o'ziga xos leksik-grammatik jarayon, emotsionallik, ritm, inversiya, badiiy – tasviriy vositalarning originallik imkoniyatlari, nutqning fonetik – intonatsion tovlanishlari va hokazolar orqali ma'no paradigmalarini

²⁰Бабақулов Ю.Ф. Қаҳрамон Рухияти талқинининг макон ва замонда акс этиши // Илм-фан электрон журнали.—Тошкент, 2021. — Б. 5.

²¹Narzulla Sh., To'rayeva B. Badiiy vaqt va uning sistemasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. — B. 8.

²² Guy de Maupassant. Bel-Ami. — Lausanne: Éditions Rencontre, 1998. — P. 24.

yaratishidadir.²³ Shu jihatdan, Mopassanning “Hayot” romani romantik ideallar qanday qilib chuqur umidsizlikka olib kelishi mumkinligini va hayot haqiqati ko‘pincha azob – uqubat, xiyonat va voz kechish bilan belgilanadi, degan g‘oyani yoritadi. Romanda bosh qahramon Jannaning hayoti va uning butun hayoti davomida duch kelgan umidsizliklari tasvirlanadi. Romanning asosiy mavzusi ishqiy illyuziyalar va hayot va muhabbatga nisbatan bo‘lishi mumkin bo‘lgan haqiqiy bo‘lmagan umidlarning tanqidi sifatida talqin qilinadi.

Roman burjua jamiyatidagi normanlar oilasidan bo‘lgan Janna ismli yosh ayolning achinarli hayotini tasvirlaydi. Bosh qahramon Janna sevgi va baxtga to‘la hayotni orzu qiladi. U o‘n yetti yoshida xudbin va xiyonatkor bo‘lib chiqqan vikont Julien de Lamar bilan turmush quradi. Biroq, turmushi davomida Janna bir qator qiyinchilik va umidsizliklarga uchraydi: uning nikohi buziladi, u yaqin insonlarini yo‘qotadi va u dunyoning shafqatsizligiga duch keladi. Janna bir nechta romantik umidsizliklarni boshdan kechiradi. Uning Julien bilan turmush qurishi u tasavvur qilgan idealdan uzoqdir. Erining xiyonatini sezib qolishi uning orzulari va haqiqati o‘rtasidagi uzilishlarga olib keladi. Mopassanning yozgan asari hayotiy va realistik bo‘lib, kundalik hayotdagi mayda fojialarni, qahramonlarning ichki iztiroblarini yoritib beradi. Muallif sodda, ammo ta’sirchan tildan foydalanadi, aniq tavsiflar va haqiqiy dialoglar real va immersiv muhit yaratishga yordam beradi: *“Et, les nuages s’étant fendus, le fond bleu du firmament parut; puis la déchirure s’agrandit, comme un voile qui se déchire et un beau ciel pur, d’un azur net et profond, se développa sur le monde. Un souffle frais et doux passa, comme un soupir heureux de la terre et, quand on longeait des jardins ou des bois, on entendait parfois le chant alerte d’un oiseau qui séchait ses plumes”*²⁴. Ma’nosi: Bulutlar chokidan moviy osmon ko‘zga tashlandi, so‘ng bu yoriq kengaya boshladi, xuddi yirtilayotgan parda singari. Zamin go‘yo shodon nafas olganday, yoqimli va yengil shabada esdi. Soyabon arava, bog‘lar va o‘rmonlar oralab o‘tayotganida qanotlarini quritayotgan qushchaning sho‘x sayrashini eshitiladi. Mopassanning “Hayot” asarida bir nechta ramzlar matnni boyitib, asarning asosiy mavzularini qurishga hissa qo‘shadi. Ushbu romanda tabiat asosiy rol o‘ynaydi. U ko‘pincha juda aniq tasvirlangan va bosh qahramon Jannaning his – tuyg‘ulari va kayfiyatini aks ettiradi. Jannaning oilaviy uyining bog‘i roman boshida begunohlik va umidning ramzi bo‘lishi mumkin, ammo voqealar rivoji bilan u umidsizlik va tanazzulning ramziga aylanadi. Tabiat Janna boshidan kechirgan sinovlarning ko‘zgusiga aylanadi. Oila qal’asi an’analarni, barqarorlikni va baxtli hayot orzularini ifodalaydi. Biroq, bu Janna duchor bo‘lgan zulm va ijtimoiy cheklovlarining ramzidir. Hikoya davomida qal’aning yomonlashishi illyuziyalarning yo‘qolishini va oilaviy qadriyatlarning yemirilishini ko‘rsatadi. Ushbu ramzlar orqali Mopassan sevgi, umidsizlik va vaqt o‘tishi kabi universal mavzularni o‘rganar ekan, qattiq ijtimoiy tanqidni tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi.

“Hayot” asaridagi makon aniqlik bilan tasvirlangan, u hikoyani ma’lum joylarda bog‘laydi va qahramonlarning his-tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi.

²³ Tojiboyev M., Yusupova Sh. Bo‘riyeva E. Adabiy germevika va mumtoz badiiy til. – Toshkent: Universitet, 2013. – B. 133.

²⁴ Guy de Maupassant. Bel-Ami. – Lausanne: Éditions Rencontre, 1998. – P. 10.

Roman Normandiya fermasida, Jannaning uyida boshlanadi. Yozuvchi, bu tinch qishloqni uygʻotish uchun yorqin taʼriflardan foydalanadi: *“La maison était entourée par un jardin dont les arbres étaient encore jeunes”*²⁵. Maʼnosi: Uy hali daraxtlari yosh boʻlgan bogʻ bilan oʻralgan edi. Bu tasvir Jannani yillar davomida duch keladigan sinovlardan farq qiladi. Asar davomida makon ham oʻzgaradi. Janna turmush oʻrtogʻi Julien bilan baxt topishga umid qilgan uy tezda umidsizlik ramziga aylanadi. Er-xotin nikoh va xiyonat haqiqatlariga duch kelganda, taʼriflar qorongʻi va zulmkor boʻladi. Bir paytlar umid bilan toʻlgan joy (makon) afsus bilan toʻla makonga aylanadi. “Hayot” asarida vaqtga munosabat Jannaning fojiali taqdirini tushunish uchun asosdir. Roman bir necha oʻn yilliklarni qamrab olgan boʻlib, inson hayotining barcha jabhalarini asta-sekin, lekin, shubhasiz oʻzgartiradigan vaqt oʻtishini tasvirlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Gustav Flober va Gi de Mopassan romanlari poetikasi”** deb nomlangan va uch boʻlimdan iborat. Ushbu bobning birinchi boʻlimi “Gustav Floberning “Bovari xonim” asarida qahramonlar talqini” deb ataladi.

Gustav Floberning “Bovari xonim” romanining poetikasi boy va murakkab boʻlib, asarni realizm durdonasi darajasiga chiqargan. Flober Emmaning psixologiyasiga kirib, uning romantik orzulari va ogʻir haqiqat oʻrtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Obyektlar va joylar ramziy maʼnoga ega boʻlib, ijtimoiy ikkiyuzlamachilikni yoritadi. Murakkab va puxta nasr hamda boy hissiy tavsiflar orqali qahramonning hayoti aniq tasvirlanadi. *“Elle en avait fini, songeait-elle, avec toutes les trahisons, les bassesses et les innombrables convoitises qui la torturaient. Elle ne haïssait personne, maintenant une confusion de crépuscule s’abattait en sa pensée, et de tous les bruits de la terre Emma n’entendait plus que l’intermittente lamentation de ce pauvre cœur, douce et indistincte, comme le dernier écho d’une symphonie qui s’éloigne”*²⁶. Maʼnosi: U endi hamma narsa – barcha xiyonatlar, pastkashliklar va qalbini ezgan son-sanoqsiz havaslar ortda qoldi, deb oʻylardi. Endi hech kimdan nafratlanmasdi. Fikrlari ustiga xuddi qorongʻulik pardasi choʻkayotganday edi va butun olamdagi ovozlari orasida Emma faqat yuragining gʻamgin va uzilib-uzilib chiqqan nolasini eshitardi – bu nolalar uzoqlashib borayotgan simfoniyaning soʻnggi aks-sadosidek muloyim va noaniq edi. “Bovari xonim” asarining eng yorqin xususiyatlaridan biri bu personajlarning psixologik teranligidir. Flober Emma Bovarini harakatga keltiradigan murakkab motivlar va istaklarni, shuningdek, uning impulsiv tanlovlarining fojiali oqibatlarini oʻrganadi. Ushbu parcha - yozuvchi Emmaning ruhiy holatini poetik ifoda etgan eng taʼsirchan sahnalardan biridir. Unda qahramon oʻzini qiynagan xiyonat, pastkashlik va istaklardan xalos boʻlganini his qiladi. Vaqt, xotira va hissiyotlar xiralashadi, bu esa ongning soʻnishini bildiradi. Yurakning uzilib-uzilib eshitalayotgan nidosi hayotning soʻnggi sadolari sifatida tasvirlanadi. *Le dernier écho d’une symphonie qui s’éloigne* (“Uzoqlashayotgan simfoniyaning soʻnggi aks-sadosi”) kabi obrazlar yordamida muallif hayot va

²⁵ Guy de Maupassant. Bel-Ami. – Lausanne: Éditions Rencontre, 1998. – P. 17.

²⁶ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 649.

o'lim o'rtasidagi chegarani poetik ifodalab, hayotning yakuni, so'nayotgan umidlar yoki oxirgi ruhiy titroq kabi tushunchalarni ramziy tarzda tasvirlagan. Mazkur sahna Floberning psixologik realizmga asoslangan poetikasini yaqqol namoyon etadi.

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi "Bovari xonim" romanida makon va zamon tavsifi deb nomlanadi.

Badiiy adabiyotda tahlil qilinadigan badiiy makon o'zining tahliliy usuli va matn bayoniga nisbatan turli xil bo'lishi mumkin. Badiiy makon doimiy ravishda badiiy zamon bilan birgalikda o'rganiladi va buni adabiyotga rus olimi Mixail Baxtin xronotop atamasi bilan olib kirgan²⁷. Uni quyidagicha ta'riflaydi: "Adabiy-badiiy xronotopda zamon va makon belgilari anglangan va aniq yaxlitlikda uyg'unlashuvi ko'zga tashlanadi. Bunda zamon tig'izlashadi, zichlashadi, badiiy sezilarli bo'ladi, makon esa zamon, syujet, tarix harakatlariga intensivlashadi, tortiladi. Zamonning ko'rinish belgi, alomatlari makonda namoyon bo'ladi, makon esa zamon orqali anglanganadi va o'lchanadi"²⁸. Makon mavjud bo'lgan tasvirda albatta zamon mavjud va zamon ham o'z navbatida makonni taqazzo qiladi. Gustav Floberning "Bovari xonim" asarida makon va zamon asarning boyligiga hissa qo'shuvchi asosiy unsurlardir. Asar asosan normanlarning kichik shaharchasi Ionvilda sodir bo'ladi. Viloyat muhitini tanlash juda muhim, chunki u Emma Bovari hayotining zerikish va monotonligini aks ettiradi.

Badiiy zamon vaqtning boshqa shakl va tiplari singari davomiylikka egadir, bu davomiylik voqealarning davriy davomiyligini tashkil etgan asar voqealarini qamrab oladi. Voqealar davomiyligi turli mumtoz asarlarda makon va zamon birligidan tortib, epik ifodalanishgacha, ba'zan bir necha avlod hayotining davrlarini qamrab olishi mumkin²⁹. Roman bir necha yilni o'z ichiga oladi, Emma xarakterining evolyutsiyasini va uning progressiv pasayishini ko'rsatadi. Vaqt o'tishi yangilanishni ham, tanazzulni ham anglatuvchi fasllar bilan belgilanadi.

Gustav Floberning "Bovari xonim" romani fransuz realizmining yuksak namunasi bo'lib, inson ruhiyatini makon va vaqt vositasida chuqur tahlil qiladi. Asarda syujet emas, balki Emma Bovarning ichki kechinmalari, orzulari va haqiqat bilan to'qnashuvi orqali inson tabiati ochib beriladi. Roman makoni – Fransiyaning kichik provinsiyalari (Tost, Ionvil) va qisqa muddat Ruan shahri – Emma orzularining tor muhiti sifatida xizmat qiladi.

Tost – romantik illuziyaning yemirilishi Emma hayotining dastlabki bosqichi Tost qishlog'ida boshlanadi. U yerda u hayotdan romantik zavq kutadi, lekin haqiqatda bu makon uning orzulariga mos kelmaydi: "*Elle croyait autrefois que ce serait un plaisir d'habiter la campagne*"³⁰. Ma'nosi: *U ilgari qishloqda yashashni huzur deb o'ylardi*. Ammo Tost qishlog'i uning orzulari va hayot haqiqatining ilk to'qnashuviga sabab bo'ladi. Bu makon unga tor, bir xillikdan iborat va bo'g'uvchi

²⁷Ziyadullayev A.I. Alfred de Myusse asarlarining badiiy zamoni va makoni. Filol.fan. bo'yicha falsafa dok. (Phd) diss. ... avtoreferati. – Samarqand, 2025. – B. 13.

²⁸Бахтин М.М.Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 234-235.

²⁹Ziyadullayev A.I. Alfred de Myusse asarlarining badiiy zamoni va makoni:Filol. fan.bo'yicha falsafa dok (Phd) diss. ... avtoreferati. – Samarqand, 2025. – B.10.

³⁰ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 192.

muhit sifatida ko‘rinadi. Aynan shu yerda Emmaning turmush va sevgi haqidagi romantik tasavvurlari birinchi bora parokanda bo‘ladi.

Ionvil – ichki ayriliq va umidsizlikning chuqurlashuvi. Ionvilga ko‘chish dastlab Emmaga yangi hayot umidini baxsh etadi. Ammo bu kichik shaharcha ham xuddi Tost singari zerikish va ruhiy bo‘shliqqa to‘la makon sifatida namoyon bo‘ladi. “*La monotonie de la vie provinciale l’étouffait*”³¹. Ma’nosi: Viloyat hayotining bir xilligi uni bo‘g‘ardi. Provinsiyadagi kundalik hayot, doimiy takrorlanish, quruq ijtimoiy hayot Emmaning ichki tanholigi va norozilik tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi. Uy esa uning yolg‘izligi va iztirobining ramziga aylanadi.

Ruan – aldovga to‘la umid va so‘nggi ilinj makoni. Ruan shahri Emmaning nazarida orzular amalga oshadigan joy sifatida gavdalanadi. Bu yerda u Leon bilan munosabatlarda ehtiros, ozodlik va yangi hayot umidini his qiladi. “*Jamais elle n’avait été si belle*”³². Ma’nosi: U hech qachon bunchalik go‘zal bo‘lmagan. Ammo bu makon ham uzoq davom etmaydigan xayolotga aylanishi bilan ajralib turadi. Ruan – Emmaning so‘nggi ayrilig‘i, u hayotdan topmoqchi bo‘lgan baxtning so‘nggi, ammo yolg‘on manzili sifatida tasvirlanadi.

Parij – tasavvurdagi ideal. Parij asarda bevosita ko‘rsatilmagan bo‘lsa – da, u Emmaning tasavvurida ideal go‘zallik, madaniyat va ehtiros timsoli sifatida mavjud: “*Elle rêvait de la vie parisienne, de luxe et d’élégance*”³³. Ma’nosi: U Parij hayoti, dabdaba va nafislikni orzu qilardi. Emma uchun barcha joylar tor va umidsiz ko‘rinadi. U Parijdagi go‘zallik va ehtirolarni orzu qiladi, ammo ular unga nasib etmaydi. Parij uning uchun faqat tasavvurdagi ideal makon bo‘lib qoladi. Shu tarzda makon ruhiy qamoq va tushkunlik timsoliga aylanadi, Flober esa vaqtni qahramonning ruhiy holatiga mos psixologik zamon sifatida tasvirlaydi.

Cho‘zilgan vaqt – ruhiy bo‘shliq: “*Elle passait de longues heures à regarder la pluie tomber*”³⁴. Ma’nosi: U uzoq soatlar yomg‘irning yog‘ishini kuzatardi. Bu parcha orqali Emma hayotining zerikarli, ruhiy jihatdan bo‘sh davrlari ko‘rsatiladi. Tashqi hodisalar sekinlashadi, vaqt o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

“*Les heures fuyaient comme des secondes*”³⁵. Ma’nosi: Soatlar soniyadek o‘tib ketardi. Emma ehtirosli lahzalarni boshidan kechirayotganida vaqt psixologik jihatdan tezlashadi. Bu uning haqiqiy hayotni faqat shunday pallalarda his qilishini bildiradi. Ichki vaqt (psixologik vaqt): Emma ichki kechinmalarida vaqt ba‘zan cho‘ziladi, ba‘zan tezlashadi. Masalan, u ma’shuqlari bilan o‘tkazgan vaqtni mazmunli va hayajonli deb tasvirlaydi, lekin oilaviy hayotni juda zerikarli va cho‘zilgan deb his qiladi. “*Elle regardait fixement l’horloge*”³⁶. Ma’nosi: U soatga tikilib qarab turardi. Hayotining yakunida vaqt to‘xtagandek tuyuladi. Emma uchun bu hayotiy chiziqlarning tugashi, ruhiy halokat nuqtasidir. Vaqt va makon bu yerda birlashib, dramatik kuch kasb etadi.

³¹ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 271.

³² Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 424.

³³ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 476.

³⁴ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 132.

³⁵ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 540.

³⁶ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 636.

Uchinchi bobning uchinchi bo‘limi “Gi de Mopassan va Gustav Flober prozalarida universallik kategoriyasi va antitezaning roli” deb ataladi.

Gi de Mopassan va Gustav Flober prozalarida inson ruhiyati va jamiyat hodisalarining murakkabligi universal badiiy tushunchalar orqali ochib beriladi. Ularning ijodi shaxsiy kechinmalar, ijtimoiy ziddiyatlar va ichki kurashlarni umuminsoniy kontekstda tasvirlash orqali universallik kategoriyasini namoyon qiladi.

Flober o‘zining “Bovari xonim” kabi asarlarida istak, umidsizlik va ma’no izlash kabi universal insoniy tuyg‘ularni o‘rganadi. Flober nasrida ko‘pincha inson tabiatiga xos bo‘lgan qarama-qarshiliklarni ko‘rsatuvchi nozik istehzo bilan ajralib turadi. Universallik kategoriyasi Gi de Mopassan va Gustav Flober romanlarida badiiy borliqning barcha darajalarini belgilaydi. Bu esa personajlar va syujetda aniq namoyon bo‘ladi. Adabiyotda “universallizm” atamasi muhim ahamiyat kasb etadi. “Absolyut darajaga ko‘tarish, universal ma’no bag‘ishlash, individual holatni, individual vaziyatni tasniflash va shu kabilar romantizmga aylantiriladigan har bir o‘zgarishning mazmun-mohiyatini tashkil etadi”³⁷, – deb yozgan edi Novalis. Shunday qilib, universallik kategoriyasi Flober va Mopassan prozasida individual tajribani umumiy insoniy kontekstga bog‘lab, badiiy asarning psixologik va ijtimoiy qatlamlarini aniq ochib beradi.

Gustav Floberning “Bovari xonim”, Gi de Mopassanning “Hayot” va “Azizim” asarlarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan universal kategoriya – bu intilishlar va voqelik o‘rtasidagi tafovutdir. Ushbu mavzu keltirilgan uch asarda markaziy o‘rinni egallaydi va turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi.

“Bovari xonim”da Emma Bovari romantik kitoblar ta’sirida ehtirosli va hashamatli hayotga intiladi, ammo oddiy shifokor Sharl bilan turmushi uning orzularini oqlamaydi va bu isrofgarchilik hamda noto‘g‘ri qarorlarga olib keladi. Shunga o‘xshab, “Hayot” romanidagi Janna ham romantik hayotni orzu qiladi, Julien bilan turmushi esa xiyonat va umidsizlikka olib keladi, bu esa qahramonlarning ideal va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatini ko‘rsatadi.

Mopassan va Floberning asarlaridagi voqeliklar, tarixiy jarayonlar, qahramonlar xarakteri yoki tabiatning arzimagan tasviri bo‘lsin, barchasi yozuvchilarning sinchkov baholanishidan o‘tadi. Unda mohiyat yoki hodisalar ziddiyatlilikini aniqlash va ularni umumiylikka, universallikka, romantiklar uchun “absolyut antitezalarning absolyut ravishdagi sintezidan boshqa hech narsani anglatmaydigan”³⁸ g‘oyaga qo‘shib qo‘yish usuli mavjud.

“Antitezaga asoslangan, har doim favquloddagi mazmun – mohiyatlar yoki voqea – hodisalarining to‘qnashuvi ularning parokandalikka duch kelishiga, hatto ularga barham berishga, chaparosta qilishga ham olib keladi. Muallif bir – biriga butunlay qarama – qarshi bo‘lgan bosh asoslarni buzib, o‘rtadagi konfliktini hal qiladi”³⁹. Adabiyotda antiteza adabiy til va ifoda vositalaridan biri bo‘lib, unda ikki

³⁷Новалис. Фрагменты // Литературные манифесты западноевропейских романтиков. – Москва: Наука, 1980. – С. 96.

³⁸ Шлегель Ф. Атенейских фрагментов // Литературные манифесты. – Москва, 1980. – С. 56.

³⁹ Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари (Шатобриан ва В.Гюго ижоди мисолида): Дисс. ... филология фан.доктори (DSc). – Тошкент, 2016. – В. 155.

yoki undan ortiq qarama-qarshi ma'no hamda tasviriy elementlar yaqin joylashtiriladi. Ushbu vosita yordamida muallif fikrning mazmuniy ziddiyatini, qarama-qarshilikni bayon etadi va matnga estetik va semantik kenglik beradi. Mopassanning "Azizim" va Floberning "Bovari xonim" asarlarining bosh qahramonlari Jorj Dyurua va Emma Bovarining taqdirleri ikki xil tarzda yakun topadi. Bu esa ikki asarning antitezasi (qarama - qarshiligi)ni yuzaga keltiradi. Antiteza- badiiy asarda voqea yoki tushunchalarni bir-biriga qarshi qo'yish orqali zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berishdir. Masalan: *"Lorsqu'il parvint sur le seuil, il aperçut la foule amassée, une foule noire, bruissante, venue là pour lui, pour lui Georges Du Roy. Le peuple de Paris le contemplait et l'enviait".*⁴⁰ Ma'nosi: Eshikka yetib kelganida, u yerda to'plangan qora kiyimli, g'ala-g'ovur olomonni ko'rdi – bu odamlar faqat uni ko'rish, uni – Jorj Dyuruani tabriklash uchun kelgan edilar. Parij xalqi unga havas va hayrat bilan boqardi. "Azizim" romani qahramoni Jorj Dyurua oddiy fransuz dehqonining o'g'li. Jorj Dyurua – hayotni real ko'ra oladigan, sovuqqon va hisob-kitobli erkak. U o'zining jozibasi va ayollar bilan bo'lgan munosabatlaridan foydalangan holda jamiyatda yuqoriga ko'tariladi. U axloqiy tanazzul evaziga ijtimoiy muvaffaqiyatga erishadi, garchi bu muvaffaqiyat orqasida ma'naviy bo'shliq yashiringan bo'lsa-da, qisqa fursat ichida yirik siyosatchilardan firibgarlikni o'rganib, Parijdagi "Fransuz hayoti" redaksiyasida katta mansabga ega bo'ladi. Roman so'ngida Dyurua yirik fransuz siyosatchisi janob Valterning qiziga uylanadi.

"Bovari xonim" romani orzulari va haqiqat o'rtasida azob chekkan Emma haqida hikoya qiladi. Romantik hayotni ideallashtirgan Emma turmushda baxt topolmay, hayotidan norozi bo'ladi. Haqiqat va orzu o'rtasidagi tafovut uni ruhiy inqirozga olib keladi va u fojiali tarzda o'z joniga qasd qiladi. *"Et Emma se mit à rire, d'un rire atroce, frénétique, désespéré, croyant voir la face hideuse du misérable qui se dressait dans les ténèbres éternelles comme un épouvantement. Une convulsion la rabattit sur le matelas. Tous s'approchèrent. Elle n'existait plus"*⁴¹. Ma'nosi: Emma vahshiyona, telbalarcha, umidsiz kulib yubordi, go'yoki abadiy zulmatda qo'rqinchli bir tusda qad rostlagan jirkanch odamning yuzini ko'rgandek bo'ldi. Bir jinni uni yana to'shakka yiqitdi. Hamma uning oldiga yugurdi. U endi butkul yo'q edi.

Gustav Floberning "Bovari xonim" asari fransuz ayolining ziddiyatli, zerikarli va fojiali hayotini tasvirlaydi. 1857-yilda nashr etilgan bu roman jamiyatda taqiqlangan mavzularni halol ko'rsatgani uchun tanqidga uchradi. Muallif Emma obrazi orqali inson orzulari va shafqatsiz haqiqat o'rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Asarda romantik orzular bilan real hayot to'qnashuvi, ideal sevgi va umidsizlik o'rtasidagi tafovut chuqur aks etgan. O'z his-tuyg'ulariga berilgan Emma fojiali tarzda halok bo'ladi. Ushbu romanda insonning hissiyotlar ortidan quvishi va his-tuyg'ularni barcha narsadan ustun qo'yishi real hayotda fojiaga olib kelishi yaqqol ko'rsatib berilgan. *"Insoniy hislar inson tafakkuridan yoki bilim hissiyotdan ustun*

⁴⁰ Guy de Maupassant. Bel-Ami. – Lausanne: Éditions Rencontre, 1998. – P. 463.

⁴¹ Gustave Flaubert. Madame Bovary. – Paris: Édition du centenaire, 1929. – P. 884.

qo'yilmasligi kerak. Ikkala holatda ham inson hayoti ziddiyatlarga to'ladi. Flober mana shu ziddiyatlarni ochib berdi. Go'zallik, muhabbat, ishq – bularning barchasi go'zal, ammo ularning ortida turgan xatarni e'tiborsiz qoldirish aslo mumkin emas"⁴². Asarlardagi qahramonlarning ikki xil taqdiri ikki asarning antitezasini yuzaga keltiradi.

Ta'kidlash lozimki, Jorj Dyurua va Emma Bovarining taqdirlari asar yakunida bir-biridan ancha uzilgan, bir-birini inkor etadi, bu yerda kurash doimiy ketmoqda. Ya'ni Emmaning o'z kechinmalari bilan kurashishi, kechinmalariga mag'lub bo'lishishi o'z taqdirining fojiasiga aylandi. Qayerda teng kuchlar qarshilik ko'rsatsa, demakki, o'sha vaziyatlar fojiali yakunlanishi bejiz emas.

XULOSA

1. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllangan romantizm oqimi fransuz adabiyotida tub burilish yasadi. U ma'rifatparvarlik davrining ratsionalistik dunyoqarashi hamda klassitsizmning qat'iy qoidalariga qarshi ijodiy e'tiroz sifatida maydonga chiqdi. Romantizm badiiy tafakkurda shaxsiy ichki holat, tuyg'ular dunyosi va idealistik qarashlarni ilgari surdi.

2. Realistik yo'nalish esa 1830-yillarda aynan shu romantik g'oyalar – ortiqchaidealizatsiya va hissiy jo'shqinlikka qarshi naturalistik va empirik yondashuvni ilgari surgan badiiy oqim sifatida paydo bo'ldi. Realizm vakillaridan biri Gustav Flober bo'lib, u o'z asarlarida inson ruhiyatining murakkab jihatlari orqali burjua jamiyatining axloqiy poydevorini keskin tanqid ostiga oladi.

3. Fransuz adabiyotida romantizm va realizm oqimlari bir-biriga antagonistik emas, balki uzviy ravishda bog'liq, bosqichma-bosqich rivojlangan jarayon sifatida ko'rilishi lozim. XIX asr ikkinchi yarmida romantizmning pasayishi va realizmning kuchayishi adabiy tafakkurda sifat jihatdan yangi bosqichning yuzaga kelishiga olib keldi.

4. Gi de Mopassan ijodi, xususan uning novellalari, fransuz nasri taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning poetikasi sodda, ixcham syujet ortida chuqur psixologik va ijtimoiy tahlil yotadi. Mopassan aniq kompozitsion tuzilma va inson ruhiyatining ichki ziddiyatlarini badiiy vositalar orqali tasvirlashda yuksak mahorat ko'rsatgan.

5. "Azizim" ("Bel Ami") romanida Mopassan Jorj Dyurua obrazini ikkiyuzlama tabiatli qahramon sifatida yaratgan: u bir vaqtning o'zida ham jozibali, ham utilitaristik shaxs sifatida gavdalanadi. Asarda ayollar obrazining qahramon yuksalishidagi roli, shuningdek, burjua jamiyatining ijtimoiy va axloqiy deformatsiyasi batafsil ochib beriladi.

6. "Hayot" ("Une Vie") romanida Mopassan romantik illuziyalar va real hayotning shafqatsizligi o'rtasidagi ziddiyatni ayol taqdiri orqali yoritadi. Janna obrazi XIX asr jamiyatidagi ayollar duch kelgan ijtimoiy bosim va ruhiy ezilishlarni umumlashtiruvchi ramzga aylanadi. Bu asar orqali yozuvchi jamiyatdagi gender tengsizlik, yolg'on umidlar va taqdiri muvozanatsizlik mavzularini teran ochib beradi.

⁴² <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/fransuz-klassikasi-bovari-xonim-o'limga-etaklagan-hayotiy-lazzat>

7. Flober ijodida ham ayol holatining estetik va ijtimoiy talqini yetakchi mavzulardan biridir. Ayniqsa “Bovari xonim” romanida ayol obrazining psixologik portreti orqali XIX asr jamiyatidagi ijtimoiy cheklovlar va axloqiy buzilishlar fosh etiladi.

8. Flober romanlarida makon va zamon tushunchasi voqealar fonidan tashqari qahramonning ruhiy holatini bosqichma-bosqich yoritish vositasi sifatida xizmat qiladi. Emma Bovari obrazida har bir joy, har bir holat uning orzulari, umidsizliklari va ichki halokatini bosqichma-bosqich aks ettiruvchi psixologik indikatorlarga aylangani kuzatiladi.

9. Flober va Mopassan ijodining umumiy jihatlaridan biri – insoniyat uchun doimiy ahamiyatga ega bo‘lgan universal mavzularni badiiy talqin qilishidir. Ular ijodida insoniy tuyg‘ular, ijtimoiy ziddiyatlar va axloqiy iztiroblar orqali davr muammolari yoritiladi.

10. Antitezaning qo‘llanilishi har ikki yozuvchining poetikasida yetakchi stilistik vosita bo‘lib, psixologik va ijtimoiy ziddiyatlarni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Realistik talqinda bu uslub inson ichki dunyosi va jamiyatdagi murakkabliklarni chuqur yoritish imkonini yaratadi. Mopassan va Flober ijodidagi antitezali tasvirlar ularning badiiy tafakkuri va realizmga xos haqqoniylik tamoyilini to‘liq namoyon etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ХОЛМАНОВА ШОХСАНАМ КОБИЛЖОН КИЗИ

**ПОЭТИКА ТВОРЧЕСТВА ГИ ДЕ МОПАССАНА И ГЮСТАВА
ФЛОБЕРА**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под №B2023.1.PhD/Fil3107.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Каршибаева Улжан Давировна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мусурманов Эркин Раббимович
доктор филологических наук, профессор

Жураева Малохат Мухаммадовна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Бухоро давлат университети

Защита диссертации состоится «28» февраля 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 по присуждению учёных степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрированной за номером 62634). Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «13» февраля 2026 г.
(реестр протокола рассылки № 4 от «13» февраля 2026 г.).



Н.З.Насруллаева
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
филологических наук (DSc), профессор

У.У.Кулдошов
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии (PhD) по филологическим
наукам, доцент

Д.А.Киселёв
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор филологических наук
(DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой литературоведческой науке поэтика художественного произведения последовательно изучается как литературно-эстетический пласт. В литературоведении художественный образ служит ключевым фактором, определяющим авторскую идею, творческую концепцию произведения, его структуру, композицию, стиль и жанровые особенности, и тем самым становится важным компонентом литературного явления. Изучение вопросов поэтики в мировой литературе с течением времени обогащается новыми научными подходами и методами, постепенно совершенствуясь. Поэтический анализ, направленный на воссоздание картины мира, характеров персонажей, отражение существующей социальной действительности, объективных и субъективных ситуаций, обычаев, а также представлений о природе и раскрытие идейно-художественных особенностей произведения, является одной из актуальных проблем современного литературоведения.

В мировом литературоведении вопросы поэтики издавна исследовались учёными, специализирующимися в этой области, и каждая эпоха вносила в литературоведение новые взгляды, основанные на собственных поэтических закономерностях. Действительно, пространство и время, создающие структуру, сюжет и композицию произведения, художественная идея, формирующая эпические произведения и обеспечивающая художественную реальность, требуют особого подхода к пониманию эстетической природы произведения. Поскольку поэтика является средством выражения содержания произведения, то постижение художественного своеобразия, полное понимание авторского стиля, восприятие герменевтических особенностей не могут быть достигнуты без овладения компонентами художественной образности, выраженными в произведении.

В нашей стране поэтика сегодня отражает современные тенденции научных исследований, связанные не только с лингвистикой и художественной литературой, но и с культурологией, обществознанием. В частности, Президент нашей страны Шавкат Мирзиёев всесторонне поддерживает развитие науки, включая лингвистику и литературоведение: «Самое большое богатство – это ум и знания, самое большое наследие – это хорошее воспитание, самая большая нищета – это невежество⁴³» Учитывая изложенное, изучение границ между художественной и нехудожественной литературой является одним из важных направлений. Кроме того, взгляды, отражённые в произведениях, характерных для таких современных течений, как постмодернизм, феминизм и постколониализм, наряду с романтизмом и реализмом, вносят новые измерения в вопросы поэтики. Каждая эпоха формировала собственную литературную поэтику, и именно такие

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/3324> (24.02.2024).

творческие подходы обеспечивают возможности для современного литературного анализа.

Данная диссертация в определённой степени служит реализации задач, установленных Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП–5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указом Президента от 28 января 2022 года № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также Постановлением Президента от 26 марта 2021 года № ПП–5040 «О мерах по организации и совершенствованию духовно-просветительской деятельности», Постановлением Президента от 19 мая 2021 года № ПП–5117 «О мерах по выводу изучения иностранных языков на качественно новый уровень и его популяризации», Постановлением Президента от 5 июня 2018 года № ПП–3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах», а также Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и другими нормативно-правовыми актами.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы.

В мировой литературоведческой науке вопросы поэтики художественного произведения, его идейно-художественного содержания, жанровых особенностей, категории времени и пространства, а также жизнь и творческая деятельность писателей нашли своё отражение в исследованиях европейских учёных, как Ф.Боннефи, А.М.Рем, Филип С. Фонес, Б.Колетт, Н. де М.Франсин, Арселен Бен Фархат, Флориан Плас-Вернь, Жозеф Курте, Тимот Лешо, А.М.Бижони Барона, Г.Делазмона.⁴⁴, среди российских

⁴⁴Bonnefis Ph. Sept portraits perfectionnés de Guy de Maupassant. – Paris: Galilée, 2005.–243 p.; Raim A.M. La communication non-verbale chez Maupassant. – Librairie A.G. Nizet, 1986. – 173 p.; Fones Ph.S. Mark Twain: social critic. – New York, 1958; Becker Colette. Lire le réalisme et le naturalisme. – Paris: Dunod, 1992. – P. 38-39; Ninane de Martinoir Francine. – Maupassant et le pessimisme “fin de siècle”, Analyses et réflexions sur Guy de Maupassant Une Vie // Ouvrage collectif, Ellipses. – Paris, 1999. – P. 446-449; Farhat A.B. La structure de l'enchâssement dans les contes et nouvelles de Guy de Maupassant // Faculté des Lettres et de Science Humaines de Sfax. – Tunisie, 2006. – P. 240-245; Floriane Place-Verghnes. Jeux pragmatique dans les contes et nouvelles de Guy de Moupassant. – Paris: Honoré champion éditeur, 2005. – 335 p.; Courtés J. La parure de G. de Maupassant. Description sémiolinguistique // Du visible au visible. Initiation à la sémiotique du texte et de l'image. – Bruxelles: De Boeck Université, 1995. – P. 35-86; Lécho T. Maupassant: quelle genre de réalsme? – Bordeaux: Les édition de l'Hèbe, 2010. – 96 p.; Bijaoni Baron A. -M. Le theme bureaucratique chez Flaubert et Maupassant // Flaubert et

исследователей – Ж.В.Соколовская, Г.И.Модина, К.Н.Галай, С.А.Кривцова, И.Ю.Подгаецкая, А.Г.Андреев, П.Н.Берков, Е.М.Евнина, Т.В.Ковалева, Ю.Н.Купреянова, Э.Мениаль⁴⁵, а также среди узбекских учёных – И.К.Мирзаев, М.Н.Холбеков, У.Журакулов, А.Носиров, У.Каршибаева, Б.Тураева, М.Джаббарова⁴⁶.

